

O'lim zarbasi



14:00 / 17.10.2021 1878

Muso ulg'ayib kuchli yigit bo'lgach, Alloh taolo unga ilm va hikmat ato etdi.

Muso zolimlardan nafratlanar, ularni xush ko'rmas edi. Barcha payg'ambarlar kabi mazlum, bechoralarni sevib, hamisha ularning yonini olib yuradi.

Hamma o'yin-kulgu bilan mashg'ul bo'lgan bir paytda Muso fir'avn shahriga kirib keldi. Yo'lda u ikki kishining urushayotgani ustidan chiqdi. Raqiblarning biri Bani Isroillik, ikkinchisi esa Bani Isroilning dushmani qibtiylardan edi.

Bani Isroillik kishi Qibtiydan shikoyat qilib, Musoni yordamga chaqirdi. G'azablangan Muso qibtiyni bir musht urib o'ldirib qo'ydi. Muso alayhissalom qibtiyni o'ldirib qo'yganiga qattiq afsuslandi. Buning shayton amalidan ekanini bilib, Muso Allohga tavba qildi.

Albatta, barcha payg'ambarlar mana shunday ko'p tavbatazarrular qilganlar.

«(Muso) dedi: Bu shayton amalidandir. Albatta u ochiq adashtirguvchi dushmandir».

Alloh taolo Musoning tavbasini qabul qildi. Chunki u qibtiyni qasddan o'ldirgani yo'q edi. Qibtiy to'satdan birinchi mushtanoq jon berdi. Muso alayhissalom Allohga hamdu-sanolar aytdi:

- Darhaqiqat, Parvardigorim menga ko'p ne'matlar bergan va U meni mag'firat qildi. «Bas, (endi) hargiz mujrimjinoyatkor kimsalarga yordamchi bo'lmasman».

Muso Fir'avnning mirshablari kelib qachon olib ketar ekan, deya shaharda qo'rqib yurdi. Chunki ular qarg'a ko'zli va chumoli holli kimsalar edi.

Mirshablar Fir'avn xizmatkorlaridan bo'lgan qibtiyning jasadini topib oldilar. Lekin qancha urinmasinlar, kim o'ldirganini baribir bila olmadilar. Axir qotilning kimligini Muso va Bani Isroillik bir kishidan boshqa hech kim bilmasdi. Ro'y bergan qotillik haqida hamma yoqda duv-duv gap yurardi. G'azablangan Fir'avn qotilni qidirib topish shart ekani haqida buyruq berdi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad